

BAXSHICHILIK SAN'ATI ORQALI MILLIY ONG VA TARIXIY XOTIRANI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21252025>

Tursunov Zoxidjon Abduraimovich

*Termiz davlat universiteti Milliy libos va san'at fakulteti Musiq ta'limi kafedrası
o'qituvchisi*

O'razov Olim Usmonovich

*Termiz davlat universiteti Milliy libos va san'at fakulteti Musiq ta'limi kafedrası
o'qituvchisi*

Annotatsiya

Maqolada Maqolada baxshichilikning xalq xotirasidagi roli, dostonlarning tarbiyaviy va g'oyaviy kuchi hamda bugungi kunda bu san'atni saqlab qolish va rivojlantirish masalalari zamonaviy yondashuvlar bilan tahlil qilinadi deb tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar

milliy ong, tarixiy xotira, og'zaki ijod, doston, ma'naviyat, madaniy meros.

Аннотация

В статье предлагается проанализировать роль бахши в народной памяти, воспитательную и идеологическую силу эпосов, а также вопросы сохранения и развития этого искусства в наши дни с использованием современных подходов.

Ключевые слова

национальное самосознание, историческая память, устная литература, эпос, духовность, культурное наследие.

Annotation

The article proposes to analyze the role of bakhshi in folk memory, the educational and ideological power of epics, as well as issues of preservation and development of this art today using modern approaches.

Key words

national identity, historical memory, oral literature, epic, spirituality, cultural heritage.

Kirish. Baxshichilik, xalq dostonchiligi o'zbek xalqining qadim madaniyati, milliy qadriyatlarining ilk ko'rinishlaridan biri sifatida ardoqlanib kelinayotgan san'at turidir. Baxshilar deb azaldan terma, qo'shiq va dostonlarni yoddan kuylovchi, avloddan avlodga yetkazuvchi xalq dostonchilari aytilgan, o'zbek xalqining to'yu bayramlari, yaxshi kunlari, ularning ishtirokisiz o'tmagan. Bugun yurtimizda baxshichilik san'atiga alohida e'tibor berilmoqda. 2018 yil 1 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalqaro baxshchilik san'ati festivalini

o'tkazish to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Qaror ijrosini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Fanlar Akademiyasi va Surxondaryo viloyati hokimligi tomonidan shu yilning 5-10 aprel kunlari Xalqaro baxshichilik festivali bo'lib o'tkazildi. Mazkur tadbirda 200 nafardan ortiq baxshilar, hay'at a'zolari va boshqa mehmonlar ishtirok etdilar. Baxshichilik san'ati o'zbek xalqining asrlar davomida shakllanib kelgan og'zaki ijodiy an'alarining markaziy turlaridan biridir. Baxshilar dostonlarni nafaqat yoddan aytishadi, balki ularni hayotiy, hissiy va estetik mahorat bilan ifodalaydilar. Ushbu ijro jarayonida xalqning tarixiy xotirasi jonlanadi. Alpomish, Go'ro'g'li, Rustamxon, Ravshan, Kuntug'mish kabi dostonlar orqali xalq o'z qahramonlarini taniydi, ularga havas qiladi, ularning harakatlaridan ibrat oladi. Bu jarayonda milliy g'urur, vatanparvarlik, jasorat, sadoqat, adolatparvarlik kabi qadriyatlar shakllanadi. Baxshichilikda tarixiy haqiqatlar badiiy ifoda vositalari bilan boyitilib, tinglovchining tasavvurini kengaytiradi. Masalan, Go'ro'g'li dostoni orqali xalq nafaqat qahramonlikni, balki xalqning erkinlikka intilishi, zulmga qarshi kurashi va adolat sari intilishini anglaydi. Bu obrazlar orqali tarixiy xotirafaktlar emas, balki hissiyotlar, ruhiy kechinmalar orqali jonlanadi. Shuning uchun ham baxshichilik milliy ongini shakllantirishda juda ta'sirchan vosita hisoblanadi. Bundan tashqari, baxshichilik san'ati til boyligini saqlash va rivojlantirish, xalq maqollari, iboralar, tasviriy vositalarni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Har bir dostonning matni xalq tili va tafakkurining yuksak namunasi sifatida qoraladi. Bu esa nafaqat badiiy, balki pedagogik jihatdan ham baxshichilikni o'rganish va targ'ib etish zarurligini ko'rsatadi. Zamonaviy davrda baxshichilik san'ati turli shakllarda davom etmoqda. Raqamlashtirilgan dostonlar, audio va video yozuvlar, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan baxshi chiqishlari, ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan doston kechalari bu an'anani saqlab qolish va ommalashtirishga xizmat qilmoqda.

Baxshichilik san'ati ilk bor mamlakatimizning janubiy hududlarida shakllanib, qadimiy Termiz tumanidagi Ayritom arxeologik obidasidan topilgan oq frizda ishlangan sozandalar, unda ud, arfa va chiltorlarni aks etishi bungan asos bo'ladi. Chunki ushbu san'at asari o'zining qadimiyligi, uning noyoblighi, asl nusxasi ekanligi bilan birga butun mahoratini ishga solib ko'y chalayotgan sozandalarning ma'naviy qobiliyati musiqa bilan bog'langanligi bayon qilingan. Ushbu jarayon mamlakatimizda ilk musiqaga asos solinganligi, uning zaminida xalqning orzuumidlari, hushyorligi, ogohlighi, mehnatsevarligi, mardlik va jasurlighi, sevgi-vafoga sodiqlighi, kabi xislatlari mu'jassam bo'lganligi qayd etiladi. Surxon vohasi hududi aholisining madaniy hayotida og'zaki ijod, ya'ni folklor muhim o'rin egallagan bo'lib, unda baxshichilik yo'nalishi o'ziga xos rivojlanish tarixiga ega. Baxshichilik janri ayniqsa, Dashti qipchoq o'zbek urug'lari, jumladan qo'ng'irotlar orasida keng tarqalgan. Surxondaryoda baxshichilik keng rivojlangan bo'lsada, lekin Sherobod dostonchilik maktabi o'zining alohida o'rniga ega bo'lgan. Sherobod dostonchilik maktabi faoliyati folklorshunos olimlar tomonidan o'rganilib, nihoyatda yuqori baholangan. 'zbek xalq og'zaki ijodi beqiyos xazina

bo'lib, shu asosda xalqimizni insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, oilaparvarlik, mardlik, jasurlik hamda sevgi vafoqa sadoqat ruhida qarash ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir. Yangi O'zbekiston amal qilayotgan Harakatlar strategiyasi asosida qabul qilgan davlat dasturida xalqimizni bugun va ertangi kunga ishonch ruhini to'liq shallantirish uchun ajdod-avlodlarimiz tomonidan asos solingan odob-axloq, kamtarinlik, saxiylik, saxovat, oila birdamligi, sofdillik, mehr-muruvat, qo'shnilarga hurmat, ibrat va komillikga yetish uchun asrlarosha amalga oshirilib kelayotgan an'analarga, qadriyatlarga, marosmlarga sodiq bo'lish masalasini o'ziga mu'jassam etgan xalq og'zaki ijodini tiklash, sayqallashtirish, bugungi ruh yanada takomillashtirishga alohida e'tibor berish zarurligi o'z aksini topmoqda.

O'z vaqtida folklorshunos olimlar tomonidan Sherobodlik baxshilardan 150 dan ortiq har xil dostonlar va xalq og'zaki ijodi namunalari yozib olingan. Shulardan 80 dan oshig'i O'zbekiston Fanlar akademiyasi A.Navoiy nomidagi Til va adabiyoti instituti folklor bo'limining H.Zarifov nomidagi folklor arxivida hamda A.Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyida saqlanmoqda. Sherobod baxshilari nafaqat Surxon vohasida, balki qo'shni Qashqadaryo viloyatining Qamashi, Chiroqchi, Dexqonobod tumanlari, qardosh Turkmaniston va Tojikiston Respublikalarining uzoq ovul va qishloqlarida ham mashhur bo'lishgan. Ana shu hissiy kuch baxshichilikni boshqa san'at turlaridan ajratib turadi va uni o'zbek xalqining o'ziga xos madaniy fenomeni sifatida shakllantiradi. Bugungi kun sharoitida baxshichilik san'atining ta'lim tizimidagi o'rni ham tobora ortib bormoqda. Ayrim ta'lim muassasalarida baxshichilik bo'yicha ixtisoslashtirilgan darslar, doston tahlillari, milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan ochiq saboqlar o'tkazilmoqda. Bu orqali o'quvchilarda tarixiy ong va milliy identifikatsiya (o'zlikni anglash) kuchaymoqda. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida dostonlar asosida interaktiv ta'lim vositalari yaratilmoqda. Masalan, audio-dostonlar asosida tinglab tushunish mashqlari, sahna ko'rinishlari, doston asosida esse yozish yoki qahramonlar tahlili orqali tanqidiy fikrlashni shakllantirish kabi usullar yoshlarning ham madaniy saviyasini, ham ifoda qobiliyatini rivojlantiradi. Yana bir muhim jihat shuki, baxshichilik san'ati millatlararo do'stlikni ham mustahkamlovchi vosita hisoblanadi. Markaziy Osiyo xalqlari – o'zbek, qoraqalpoq, turkman, tojik va qozoq baxshichilik maktablari o'rtasidagi o'xshashliklar umumiy tarixiy ildizlarga borib taqaladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Halqimiz turmush tarzining yuksalishida xalq og'zaki ijodining ahamiyati katta bo'lib, uning muhim yo'nalishi bo'lgan dostonchilik asrlar davomida rivojlangan. Dostonlar- qahramonlik, jangnoma, tarixiy, romantik, maishiy turmush yo'nalishlarini yorituvchi turlarga bo'lingan. Jumladan, dostonlar: qahramonlik ("Alpomish", "Farhod va Shirin"), sarguzasht-dedektiv ("Sab' ai sayyor»), ishqiyy-romantik ("Tohir va Zuhra", "Layli va Majnun"), jangnoma ("Yusuf va Ahmad", "Saddi Iskandariy"), tarixiy-memuar ("Shayboniynoma", "Jizzax qo'zg'oloni"), falsafiy ("Hayrat ul-abror"), fantastik-allegorik ("Lison ut- tayr"), didaktik ("Qutadg'u bilig") kabi voqealarni ifodalagan.

Qahramonlik dostonlarida xalq, jamiyat takdiri tasvirlansa, ishqiy-romantik dostonlarda oshiq-ma'shuqlarning sarguzashtlari bosh o'rinda turadi. Tarixiy-memuar yoxud tarixiy-biografik dostonlarda biror tarixiy shaxslar ramziylashtirilib, bo'rttirib tasvirlanadi. Umuman, dostonlarda ideallashtirish, mubolag'ali tasvir ustun bo'ladi, ularda turli afsonalar, asotirlar, hikoyatlar, dev, pari, Xizr, ajdar, ajabtovur otlar ("Alpomish"dagi Boychibor), sehr-jodu ko'p ishtirok etadi. Folklordagi dostonlar bilan yozma adabiyotdagi dostonlar shakl-shamoyili jihatidan bir xil ko'rinishda bo'lsa-da, yozma adabiyotdagi dostonlar yozuvchining dunyoni o'ziga xos tarzda idrok etishi, baholashi va o'z fikr-g'oyalari, orzu-armonlarini ifodalash tarzi, usuli, uslubida farqlanadi. Garchand, Navoiyning aksar dostonlari, jumladan, "Layli va Majnun", "Saddi Iskandariy" asarlari asosida folklor mavzui turgan bo'lsa-da, shoir ularni o'z estetik qarashlari va badiiy niyatidan kelib chiqib, tubdan qayta yaratgan. Xalq dostonlari baxshi, dostonchi, xalq shoirlari tomonidan dutor, do'mbira va boshqa cholg'u asboblari jo'rligida ijro etiladi. Baxshi-xalq dostonlari, termalarini kuylovchi, ularni yodda saqlab, nasldan-naslga yetkazuvchi san'atkordir. Baxshi so'zining ma'nosi mug'ulcha va buryatcha baxsha, bag'sha-ustod, ma'rifatchi, sanskritcha bhikshu-qalandar, darvesh degan ma'noni beradi. Mo'g'ullar istilosi davrida budda dinidagi qalandarlarni, uyg'ur alifbosi asosida turli hujjatlar tuzuvchi idora xodimlarini, Chig'atoy ulusi, Oltin O'rda, Qozon va Qrim xonliklarida kotiblarni, Boburiylar davlatidagi harbiy qismlarning hisob-kitob ishlarini olib boruvchi va ularga maosh to'lovchi yirik amaldorlarni, Buxoro amirligida ma'muriy binolar qurishda mablag' (sarf-xarajat) hisobini olib boruvchi kishilarni, turkmanlarda urug' oqsoqollarini ham baxshilar deb ataganlar. XIX-XX asrlarda dostonchilik Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarida, Xorazmda hamda Samarqand viloyatida keng rivojlangan. Bu davrda doston kuylovchi baxshilar repertuarida 150 dan ortiq xalq dostonlari bo'lgan.

Adabiyotlar tahlili. Xalq orasida Yo'ldoshbulbul, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Pulkan, Islom shoir, Berdi baxshi, Bola baxshi, Ahmad baxshi kabi doston kuylovchilar mashhur edi. Favqulodda xotira kudratiga ega bo'lgan Po'ltan shoir yetmishdan ortiq dostonni yoddan bilgan. Har bir doston ikki-uch ming satrdan tortib, o'n-o'n besh, hatto yigirma ming misragacha she'rni o'z ichiga olganligi xalq baxshilarining katta salohiyatga, kuchli xotiraga, yod olish va esda saqlash qobiliyatiga, ijod qilish qudratiga ega bo'lganligidan dalolat berar edi. Fozil Yo'ldosh o'g'li 60 ta, Ergash Jumanbulbul o'g'li 50 ta dostonni yoddan ayta olganlar, baxshilarning ba'zilar faqat doston aytsa, ba'zilar o'zlari ham dostonlar to'qiganlar. Doston aytish uchun maxsus kechalar uyushtirilgan, tuy-hashamlar ham baxshilarsiz o'tmagan, tinglovchilar baxshini to'rga o'tkazib, uni diqqat bilan tinglaganlar. Iqtidorli dostonchilar ikki-uch kecha mobaynida doston kuylay olganlar, chunki dostonlarning hajmi ham ikki-uch kecha muttasil ijro etishni taqozo etgan. Baxshilardan Shernazar Berdinazar o'g'li yetti kecha davomida doston ayta olgan. Dostonchilik kechalariga tashrif buyurgan baxshilar o'z iqtidorlari, so'zga chechanligi, soz chalishdagi mahorati bilan o'zaro bellashganlar. Mintaqada o'ziga xos an'analarga ega bo'lgan dostonchilik maktablari shakllangan.

Ayniqsa, Bulung'ur, Narpay, Qo'rg'on, Xorazm, Shahrisabz, Sherobod kabi yirik dostonchilik maktablari mashhur bo'lgan. Ular repertuarlari, uslubi, malum ijod tamoyili va ijro usullariga ko'ra bir-biridan ajralib turgan.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki. Baxshilar, asosan, ikki toifaga: ijrochi va ijodkor baxshilarga bo'linadi. Ijrochi baxshilar, asosan, ustozdan o'rgangan dostonlarni juz'iy o'zgarishlar bilan aynan kuylasalar, ijodkor baxshilar og'zaki epik an'ana asosida yangi dostonlar ham yaratadilar. Bunday baxshilar shoir baxshilar deb ham yuritiladi, masalan Ergash shoir, Fozil shoir, Po'ltan shoir, Abdulla shoir, Xidir shoir va boshqalar. Baxshilar doston va qo'shiqlarni qo'biz, do'mbira, dutor kabi sozlar jo'rligida kuylaydi. Xorazm baxshilari dostonlarni asosan, dutor, qisman tor bilan ijro etadilar, ularga g'ijjak va sozchilar jo'r bo'ladi. Doston kuylash, shogird yetishtirishda qat'iy tartib, qonun-qoidalariga rioya qilinadi. Surxondaryo baxshichilik maktabi o'ziga xos ta'sir kuchi, yo'nalishi, ovozig a ega bo'lib, bu maktabdan O'zbekiston xalq baxshilari yetishib chiqqan.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xoshimov A.S. Uyg'ur kasbiy musiqasi an'analari. – Toshkent, 2003.
2. Yu. Rajabiy. O'zbek xalq musiqasi. I-V tomlar. – T., 1957-1959.
3. M. Yusupov. O'zbek xalq musiqasi (Xorazm aShulalari). – T., 1962.
4. Ye. Romanovskaya. O'zbek xalq qo'Shiqlari. I, II-tomlar. – M., 1939.
5. I. Rajabov. Maqomlar. – T., 2006.